UDK- 3318 (575)

MEHNAT XAVFSIZLIGI BOSHQARISH USULLARINI TADBIQ ETISH

Ashurova Laylo XXX

Qarshi Davlat texnika universiteti "Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi" kafedrasi katta o'qituvchisi

Email: ashurovalaylo83@gmail.com

Tel: + 998912238415

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotda, mehnat xavfsizligi boshqarish tizimini takomillashtirishga doir yangi model ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq qilishga qaratilgan takliflar keltirilgan. Tadqiqotda xavfsizlikni boshqaruv modellarini modernizatsiya qilish, innovatsion tehnologiyalarni joriy qilish va ish joylarida xavfsizlik madaniyatini shakllantirish zaruriyatini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: mehnat xavfsizligi, boshqarish tizimi, xavfsizlik modellari, innovatsion tehnologiyalar, modernizatsiya, xavflarni boshqarish, xodimalar salomatligi, tizim monitoringi, qonunchilik, xavfsizlik madaniyati.

Аннотация: В данном исследовании представлены предложения, направленные на разработку новой модели совершенствования системы управления охраной труда и её внедрение на практике. В исследовании подчеркивается необходимость модернизации моделей управления безопасностью, внедрения инновационных технологий и формирования культуры безопасности на рабочих местах.

Ключевые слова: охрана труда, система управления, модели безопасности, инновационные технологии, модернизация, управление рисками, здоровье работников, мониторинг системы, законодательство, культура безопасности.

Annotation: This study presents proposals aimed at developing a new model for improving the occupational safety management system and implementing it in practice. The research emphasizes the need to modernize safety management models, introduce innovative technologies, and foster a culture of safety in workplaces.

Keywords: occupational safety, management system, safety models, innovative technologies, modernization, risk management, employee health, system monitoring, legislation, safety culture.

Kirish.

Mehnat xavfsizligi har qanday korxona va tashkilot uchun ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Hodisalar statistikasi ko'rsatib turganidek, ish jarayonidagi xatarlar va jarohatlar korxona faoliyati samaradorligiga, xodimlarning salomatligi va hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois mehnat xavfsizligini ta'minlash va boshqarish tizimini samarali amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

ISSN 3030-3907

Tadiqot dolzabligi. Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan taqdim etilayotgan ma'lumotlarga ko'ra, har kuni dunyo bo'yicha o'rtacha 5 ming kishi ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa va kasalliklardan vafot etmoqda, bu bir yilda 2 dan 2.3 mln. tashkil etadi, bulardan 350 mingtasi ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar, 1,7-2 milliontasi ishlab chiqarish bilan bog'liq kasb kasalliklar bilan sodir bo'lmoqda.

Ammo bu raqamlar ko'pgina ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan baxtsiz hodisalar va kasalliklar o'z ichiga olmagan, buning sabablari iqtisodiyotning real sektoridagina sodir bo'lgan baxtsiz hodisalargina hisobga olinadi, ba'zi kasalliklar yosh o'tgandan so'ng, xodim nafaqaga chiqqandan keyin (yurak, qon tomir va rak kasalliklari) rivojlanadi va bular hisobga kiritilmagan.

Sanoat korxonalari baxtsiz hodisalar sodir bo'lishiga asosiy sabablar -ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishdagi kamchiliklar, ularni bartaraf etish qo'shimcha moliyaviy investitsiyalarni talab etilmaganligi: mehnatni muhofaza qilish talablarini aks ettiruvchi amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar buzilishi, tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish bo'yicha ko'rsatmalar yo'qligi, shuningdek shaxsiy himoya vositalari, muddatlari o'tganligi, mehnat xavfsizligi sohasida xodimalar bilimlarini tekshirish va nazorat qilish yotishmasligi. Bularning barchasi tashkilotlarda sog'lom va xavfsiz mehnat sharoiti sifatini boshqarish asoslarini ko'rib chiqishni dolzarb qiladi.

Zamonaviy mehnat xavfsizligi boshqaruv tizimini rivojlantirish dolzarbligi ilmiy-texnik taraqqiyot tezlashishi, yangi mahsulotlar va xizmatlarni yaratishi, infratuzilmani jadal rivojlantirishi, shuningdek, biznes-jarayonlar va tashkiliy funksiyalar sonini ko'payishi bilan bog'liqdir.

Tadqiqotning maqsadi: zamonaviy talablar, bozor munosabatlarini tashkil etishning qonuniyatlari va shartlariga muvofiq iqtisodiyot tarmoqlari mehnat xavfsizligi boshqarish tizimini takomillashtirishda nazariy prinsiplarini va uslubiy yondashuv modelini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotga quyidagicha **vazifalari** shakllantirildi:

1) mehnat xavfsizligi boshqaruv tizimini tahlil qilish;
2) mehnat xavfsizligi sohasidagi muammolarni aniqlash;
3) bo'lajak model talablarini belgilash;
4) tizimni takomillashtirishda innovatsion yo'llarini taklif qilish.

Tadqiqot metodikasi: bu maqsad va vazifalarga erishish uchun qo'llaniladigan ilmiy usullar va yo'nalishlar tizimidir. Tadqiqotga, hujjatlar tahlili, situatsiya tahlili va statistik usullar, suhbat va so'rovnomalar, modellashtirish, eksperiment va sinov kabi kabi metodlar qo'llanildi.

Tahlil va natijalar: Mehnat xavfsizligini boshqarish samarali usullari xodimlarning ish jarayonidagi xavfli holatlardan himoya qilish, ushbu xavflarni

ISSN 3030-3907

oldindan aniqlash va ularni bartaraf etish imkonini beradi. Boshqaruv usullarini samarali joriy etish orqali korxonada xavfsiz ish muhitini yaratish, jarayonlarni muvofiqlashtirish va nazorat qilish imkoni tug‘iladi.

Mehnat xavfsizligi boshqaruv tizimi – bu tashkilotda xodimlarning ish jarayonida xavf-xatarlardan himoya qilish va ularning salomatligini saqlashga qaratilgan tizimli harakatlar majmui hisoblanadi. Boshqaruv usullari bir qator prinsiplar asosida amalga oshiriladi:

1. Qoida va standartlar asosida boshqarish. Bu usul xodimlar uchun aniq yo‘riqnomalar va meyoriy hujjatlar tayyorlash, ularga rioya qilishni ta’minlashni o‘z ichiga oladi.

2. Nazorat va monitoring usuli. Xodimlarning ish jarayonida qoidabuzarliklarini nazorat qilish va xavfli holatlarni oldindan aniqlash uchun muntazam tekshiruvlar olib boriladi.

3. Innovatsion va texnik usullar. Bu usullar texnologiyalarni qo‘llash orqali xavflarni avtomatik ravishda aniqlash va bartaraf etishni nazarda tutadi. Masalan, IoT datchiklari, video kuzatuv tizimlari, elektron signalizatsiya va avtomatlashtirilgan tahlil tizimlari.

Nazariy jihatdan boshqaruv usullari xodimlar va rahbariyatning ish jarayonidagi mas’uliyatini aniqlash, xavf-xatarlarni minimallashtirish va samaradorlikni oshirish imkonini beradi.

Mehnat xavfsizligini ta’minlashda xodimlar bilan muntazam tushuntirish ishlari olib boriladi. Ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1) Kirish va ish joyidagi yo‘l- yo‘riqlar- yangi xodimlar uchun kirish yo‘l-yo‘riqlar, mavjud xodimlar uchun ish joyidagi yo‘l -yo‘riqlar tashkil etiladi.

2) Treninglar va seminarlar- xavf xabardorligini oshirish va qoidalarga rioya qilish madaniyatini shakllantirish maqsadida psixologik va texnik treninglar davriy o‘tkazilib to‘riladi.

Tashkilotda ish jarayonida texnologik usullardan foydalanish mehnat xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

1) xavfli holatlarni avtomatik aniqlash-ushbu usul orqali xodimlarning salomatligiga tahdid solishi mumkin bo‘lgan holatlar tezkor ravishda aniqlanadi.

2) xodisalar statistikasi va tahlili- har bir jarayon va holat tahlil qilinadi, bu orqali xavflarni oldindan bartaraf etish choralari ko‘riladi.

Mehnat xavfsizligini nazorat qilishda quyidagilar muhim:

1) har bir bo‘lim va xodimning mas’uliyati aniq belgilanadi. Davriy tekshiruvlar orqali tizimning samaradorligi tahlil qilinadi. Hodisalar va qoidabuzarliklar to‘g‘risida hisobotlar tuziladi.

Boshqaruv usullarining samaradorligini baholash uchun quyidagi mezonlar qo‘llaniladi:

ISSN 3030-3907

-qoidabuzarliklar soni;
-xavfli holatlar va jarohatlar statistikasi;
-xodimlarning qoidalarga rioya qilish darajasi.

Solishtirma tahlil orqali, mavjud va yangi usullar solishtiriladi. Bu orqali yangi usullarning afzalliklari va samaradorligi aniqlanadi. Solishtirish natijasida ko‘riladiki, avtomatlashtirilgan va innovatsion usullar an’anaviy usullarga nisbatan xavflarni sezilarli darajada kamaytiradi.

Korxonada an’anaviy usullar quyidagilardan iborat: Ish qoidalari va meyoriy hujjatlar asosida olib boriladi, nazorat va tekshirish orqali qoidabuzarliklarni aniqlanadi. Uning kamchiliklari, xodimlarning xavfdan xabardorligi pastligi, nazorat jarayoni uzluksizligi. xavflarni oldindan aniqlash imkoni cheklanganli va boshq.

Mehnat xavfsizligini samarali boshqarishda PDSA (Plan–Do–Check–Act) sikli qo‘llanilishi taklif etiladi:

1. Rejalashtirish (Plan)–xavflarni tahlil qilish va choralar rejasini tuzish.
2. Amalga oshirish (Do)– taklif etilgan usullarni joriy qilish.
3.Nazorat va tekshiruv (Check)–natijalarni baholash va kamchilikni aniqlash.
4.Takomillashtirish (Act) – olingan ma’lumotlar asosida usullarni takomillashtirish.

Taklif etilayotgan yangi boshqaruv modeli-balli xavf reytingi, har bir jarayon va xodimning xavflilik darajasi ballanadi. IoT sensorlar- orqali jarayonlarni real vaqtda monitoring qilinadi. Avtomatlashgan signalizatsiyalar orqali xavfli holatlar yuz berganda xabar berish imkoniyati paydo bo‘ladi. Ushbu model, korxonada 6 oylik tajriba asosida amaliyotda tadbiq etildi.

Tadbiq etilgan guruh:yangi model (3 sex, 12 xodim).
Kontrol guruh: an’anaviy tizim (3 sex, 15 xodim).

Tadbiq jarayonida, xodimlarga trening va yo‘l- yo‘riq o‘tkazish,. sensorlar va xavfni baholash vositalari o‘rnanish, har bir jarayon va xodim uchun balli xavf indeksi hisoblanish, hodisalar, jarohatlar va qoidalarga rioya darajasi oylik kuzatildi.

Natijalar

Ko‘rsatkich	Yangi model (6 oy)	Kontrol guruh (an’anaviy)
Hodisalar soni	12	18
Jarohatlar soni	3	7
Qoidalarga rioya (%)	92%	72%
Umumiy xavf indeksi	24	38

Yangi model tadbiq etilganda hodisalar soni 33%ga kamaydi, jarohatlar soni 57% ga kamaydi, xodimlar qoidalarga rioya qilish darajasi 20% ga yuqoriladi. Solishtirma tahlil asosida, yangi model va an’anaviy usul solishtirilganda:

ISSN 3030-3907

-yangi model barqaror va aniq nazoratni ta’minlaydi;
-ballli xavf reytingi asosida ustuvor choralar tezkor belgilanadi;
-iot sensorlar va avtomat signalizatsiya xodimlarning xavf-xabardorligini yuqori darajaga olib chiqadi.

Olingan tahlillar asosida, quyidagilarni **xulosa** qilishimiz mumkin.

Mehnat xavfsizligi boshqaruv usullarini tadbiq etish har bir tashkilot uchun ustuvor vazifadir. Xodimlar ish jarayonidagi xavf-xatarlarini minimallashtirish, jarayonlarni muvofiqlashtirish va nazorat qilish orqali korxona faoliyati samaradorligi va xodimlar salomatligi ta’minlanadi.

An’anaviy usullar va innovatsion texnologiyalarni uyg‘unlashtirgan holda, tashkilotlar samarali boshqaruv tizimini yarata oladi. Amaliyotda qo‘llanilayotgan avtomatlashtirilgan monitoring, elektron signalizatsiya va xodimlar xavf xabardorligini oshirish bo‘yicha choralar, mehnat xavfsizligini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Shuningdek, PDSA sikli asosida doimiy takomillashtirish mexanizmlarini joriy etish, tizimni uzluksiz rivojlantirish imkonini beradi va kelgusidagi xavflardan samarali himoyalashni ta’minlaydi.

Takliflar:

1. MXBT larni modullashtirish: Mehnat xavfsizligi tizimlari har bir ish joyiga moslashtirilgan individual modellar bilan ta’minlanishi kerak. Bu xodimalar maxsus xavflarga qarab xavfsizlik choralarini amalga oshirishga yordam beradi.

2. Innovatsion tehnologiyalardan foydalanish: Hozirgi kunda raqamlashtirish va avtomatizatsiya ish joylarida xavfsizlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Interaktiv platformalar va mobil aplikatsiyalar orqali xavfsizlik bo‘yicha treninglar, monitoring va tahlilni rivojlantirish zarur.

3. Xodim va rahbarlar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish: Xavfsizlikka oid ma’ruzalar, treninglar va malaka oshirish o‘quv kurslarini ishlab chiqish va ularni amalga oshirish talab qilinadi. Bu ishchilarni xavfsizlik haqidagi bilimlarini oshirishga yordam beradi.

Shuningdek, maqoladagi takliflar va modellar ish joylarida xavfsizlikni ta’minlash, xodimalarning salomatligini muhofaza qilish va ish muhitini yaxshilash bo‘yicha muvaffaqiyatli qadamlar bo‘lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonun -2016 y
2. O‘zbekiston Respublikasining mehnat kodeksi – 2023 y
3. Xolbayev B.M., Raximov O.D., Maxmatkulov N.I. Hayot faoliyati xavfsizligi. Darslik (1- qismi). – T.: «Voris-nashriyot», 2020. 304 s.

ISSN 3030-3907

4. Maxmatqulov N.I., Murtazaeva, I.T. Usmanxodjaeva G.R.. Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi. O‘quv qo‘llanma.- T.: «Voris–nashriyot»- 2024. 397 b

5. Ibragimov E. I, Gazinazarova S, Yuldashev O.R. Mehnat muhofazasi maxsus kursi. Darslik –Toshkent, 2014. – 535 b.

6. Чепелев, Н.И. Управление охраной труда в организации: Учебное. пособие [Электрон. ресурс]. – Красноярск, 2018. – 175 с.

7. Пчелинсев В.А. Охрана труда в строителстве. Учебник для вузов. / В.А. Пчелинсев, Д.В. Коптев, Г.Г. Орлов. - М.: Высшая школа, 1991. - 272 с.

8. Maxmatqulov N.I. Matematik modellashtirish asosida texnosfera xavfsizligini baholash// *Monografiy.* T.: «Voris–nashriyot», 2022, 166 – b.

9. Maxmatqulov N.I., N.Z. Mamatov. Mehnat muhofazasi va xavfsizlikni boshqarish tizimini takomillashtirish //Monografiy. -2024.- 120 b.

10. Ibragimov E.I, Gazinazarova S, Yuldashev O.R. Mehnat muhofazasi maxsus kursi. oliy o‘quv yurtlari uchun darsliklar –Toshkent, 2014. – 535 b.

11. Соловев А. Охрана труда в странах мира. Учебние пособие МГИУ, 199-248с

12. Shukurova F.A Foundation for creating safe and healthy working conditions in the manufactoring sector. International journal of advanced research in education technology and management.

13. www.mintrud.uz – Kambagallikni qisqartirish va Bandlik vazirligi sayti.

14. 14.(http://ish.mehnat.uz/ saytida)

ISSN 3030-3907